АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В АЗЕРБАЙДЖАНЕ	961
Ариф Мустафаев	
ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDIY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDA RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ.....	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI.....	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP.....	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLİY TA'LİM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LİM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLİM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI

Opaev Bysen Aymanovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

Menejment va iqtisodiyot asoslari kafedrası assistenti (PhD)

Email: bisen@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizmning tarkibiy elementlari, ularning o'zaro bog'liqligi va amaliy qo'llanilish jihatlari tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlaydigan boshqaruv usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi korxonalari, iqtisodiy mexanizm, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, raqobatbardoshlik, risklarni boshqarish.

Abstract. This article analyzes the structural elements of the economic mechanism serving to increase efficiency in agricultural enterprises, their interrelationships, and aspects of practical application. Agricultural production features, resource efficiency assessment criteria, and management methods ensuring the competitiveness of enterprises in a market economy are highlighted.

Key words: Agricultural enterprises, economic mechanism, efficiency, innovative technologies, competitiveness, risk management.

Аннотация. В данной статье анализируются структурные элементы экономического механизма, служащего повышению эффективности на сельскохозяйственных предприятиях, их взаимосвязь и аспекты практического применения. Освещаются особенности сельскохозяйственного производства, критерии оценки эффективности использования ресурсов и методы управления, обеспечивающие конкурентоспособность предприятий в условиях рыночной экономики.

Ключевые слова: Сельскохозяйственные предприятия, экономический механизм, эффективность, инновационные технологии, конкурентоспособность, управление рисками.

KIRISH

Jahon rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi global yalpi ichki mahsulotning (YalM) o'rtacha 4 foizini tashkil etadi, bu ko'rsatkich ayrim kam rivojlangan mamlakatlarda nisbatan yuqori darajada kuzatiladi. Shu bois qishloq xo'jaligini rivojlantirish o'ta qashshoqlikka barham berish, umumiy farovonlikni oshirish hamda 2050-yilga borib dunyo aholisining taxminan 10 milliard kishiga yetadigan ehtiyojini oziq-ovqat bilan ta'minlashda eng muhim va samarali tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, inson iste'moli uchun ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb uchdan bir qismi turli bosqichlarda isrof bo'ladi. Bu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash va qadoqlash jarayonlarida muammolar mavjudligini, shuningdek, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, qishloq xo'jaligi korxonalarining sanoat tuzilmasini takomillashtirish orqali yetishtirilgan mahsulotlar isrofgarchiligini kamaytirish, shuningdek yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali hududlar, tuman va shaharlarni kompleks hamda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, "O'zbekiston-2030" strategiyasida har bir tumanda agrar sohada ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga



ko'maklashuvchi markazlarni tashkil etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorvachilikni sug'urtalash tizimini isloh qilish, alohida sug'urta jamg'armasini tashkil etib, unga 100 million AQSh dollarini jalb etish, shuningdek dehqon va fermerlarga sug'urta mukofotining 50 foizini subsidiyalash tizimini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda ularning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallashtirishni talab etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Agrar sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga doir umumiy iqtisodiy hamda o'ziga xos uslubiy tamoyillar ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritib berilgan. Xususan, muammoning mazmunini talqin qilish va xulosalar borasida G. Kaletnik va hammualliflar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligining yanada rivojlanishi barcha turdagi qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish, yer va mulk munosabatlarini yaxshilash, shuningdek ularning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish orqali ta'minlanishini ta'kidlaydilar [2].

M. I. Malik va O. G. Shpikulyaklarning fikricha, milliy iqtisodiyotning agrar sektorida o'ziga xos boshqaruv tizimi shakllangan bo'lib, uning xususiyatlari tegishli ko'rsatkichlar orqali aniqlanishi zarur. Ushbu tizim turli tashkiliy shaklga, o'lchamga va ixtisoslashuvga ega bo'lgan korxonalarni tashkil etish hamda institutsional o'zgarishlarning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, tadbirkorlikning rivojlanishi tub institutsional o'zgarishlar ta'siri ostida yuz beradi [3].

A. Smitning xulosalariga ko'ra, agrar soha samaradorligini oshirishning muhim masalalaridan biri qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini yuksaltirish bo'lib, bu korxonalar rivojlanishining ajralmas sharti hisoblanadi. Bunda mavjud iqtisodiy potentsiallardan samarali foydalanish orqali ularning xo'jalik faoliyatini faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi [4].

Xorijiy olimlar K. Rezaei-Moghaddam va N. Izadiy fikriga ko'ra, kichik qishloq xo'jaligi korxonalari har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy tizimini rivojlantirishda eng samarali omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular yirik sanoat tarmoqlari bilan raqobatlasha olish imkoniyatiga ega bo'lib, shu sababli bunday korxonalar davlat va hokimiyat organlarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi lozim [5].

Uslubiy jihatdan, samaradorlikni shakllantirish jarayonida xulosalarning haqiqiy ahamiyati va ijodkorligi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, samaradorlikni ta'minlashning tashkiliy va tarkibiy tizimida hal qiluvchi omil boshqaruv shakli emas, balki boshqaruv usuli va modeli hisoblanadi. Ushbu model tuzilmaviy o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish maqsadida korxona rahbari tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar guruhlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarning har bir toifasi o'ziga xos ishlab chiqarish sharoitlari, faoliyat tamoyillari va rivojlanish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Yuridik maqomga ega bo'lmagan uy xo'jaliklari, jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat o'z ehtiyojlarini ta'minlash, balki ularni tijorat maqsadida realizatsiya qilish uchun ham yetishtiradilar.



Mazkur turdagi xo'jaliklar, asosan, qo'l mehnatiga tayanadigan hamda sanoat miqyosida yetishtirilishi nisbatan murakkab bo'lgan sabzavot va boshqa bozorbop ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lib, ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yoritishda qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Prezident asarlari, shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida faoliyat yurituvchi yetakchi olimlarning ilmiy ishlari mazmunan tahlil qilindi. Mazkur sektorni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini qulaylashtirishga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar statistik jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariy manbalarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, shuningdek statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavzuni yoritishda ilmiy-texnik axborot manbalari, jumladan darsliklar va o'quv qo'llanmalar, xorijiy ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari, tadqiqot hisobotlari, ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari hamda internet manbalaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining inqirozdan chiqish muammosini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash orqali muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Ishlab chiqarish faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u iqtisodiy tizimning samaradorligi hamda ijtimoiy hayot sifati darajasiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ishlab chiqarish faoliyati korxonalarning tashkil etilishi va ularning xo'jalik yuritish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar majmuasini ifodalaydi. Shu sababli, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniq bilishi, ishlab chiqarish faoliyatini bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tez moslasha oladigan tarzda tashkil etishi lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish va agrar tarmoqdagi iqtisodiy muammolarni hal etish uchun ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi hamda samaradorlikni shakllantiruvchi asosiy tashkiliy-iqtisodiy omillarni aniqlash muhimdir. Tashkiliy omillar korxonani tashkil etish shakli, ixtisoslashuvi, texnik va texnologik jihozlanganlik darajasi, mehnat resurslaridan foydalanish hamda boshqaruv usullariga ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan tadbirkorlarning asosiy ishlab chiqarish omillarini oqilona uyg'unlashtira olish qobiliyatiga bog'liq. Ichki va tashqi omillar o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud bo'lib, aynan shu jarayonda almashinuv va aylanish munosabatlari amalga oshiriladi.

Shu bois, ishlab chiqarish natijalariga bozor sharoiti, soliqqa tortish darajasi, kredit sektorining rivojlanganlik holati hamda xomashyo resurslarining mavjudligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori iqtisodiy samaradorlik esa, o'z navbatida, demografik va ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi, byudjet daromadlarini oshiradi hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Iqtisodiy omillar inflyatsiya yoki deflyatsiya darajasi, raqobat muhitining rivojlanganligi, aholi bandligi darajasi, soliq siyosati, qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlari narxlarining dinamikasi hamda ularning o'zaro nisbatlari kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Mazkur omillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan iqtisodiy muhitni shakllantiradi. Ushbu elementlarning har biri turli iqtisodiy sharoitlarda qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tizimi korxonaning to'g'ri ixtisoslashuvini ta'minlash, tarmoqlarning oqilona uyg'unligini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u kompleks ijtimoiy-iqtisodiy, agrozootexnik va tashkiliy tadbirlar bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish va maksimal foyda olishga xizmat qiladi. Biroq, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi qishloq xo'jaligi korxonalari rivojlanishining inqirozli davrlarida moliyaviy resurslar yetishmovchiligi muammosi keskinlashadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalariga kompleks yondashuv zarur, chunki har bir korxona ma'lum rivojlanish sur'atiga ega bo'lishi lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm doimiy ravishda o'zgarib borayotgan tashqi va ichki sharoitlarga moslashib borishi talab etiladi. Shu sababli, korxonalarning mavjud resurs ta'minotidan kelib chiqqan holda o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda resurs tejovchi texnologiyalarning eng maqbul variantlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish uchun optimal resurs ta'minotini shakllantirish avvalo qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining resurs bazasining real holatini aniqlashdan, shuningdek belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib uni optimallashtirishdan boshlanishi lozim. Hozirgi sharoitda Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi korxonalari orasida xususiy korxonalar, jumladan fermer xo'jaliklari va xo'jalik shirkatlari nisbatan yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritmoqda.




Shu bilan birga, ishlab chiqarish resurslarini taqsimlashning optimal variantini aniqlash bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi korxonalarining tadbirkorlik faoliyatida narx strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish vositalarini belgilash muhim hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida vositachilar ulushining yuqoriligi natijasida ko'plab hollarda mahsulotlarni sotib olish narxлари real bozor narxlaridan sezilarli darajada past shakllanadi.

Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirishda kreditlash tizimi va boshqa bank xizmatlari, risklarni sug'urtalash, qarz va garov bozorlari, investitsiya vositachiligi hamda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kreditlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi ipoteka kreditlash tizimining zaifligi, barqaror garov bazasining shakllanmaganligi va kafolat mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning muhim tarkibiy qismi bo'lgan sug'urta tizimi esa sug'urta tartiblari va o'zaro sug'urtalash mexanizmlarining standartlashtirilmaganligi sababli yetarlicha samarali faoliyat yuritmayapti.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardosh birja bozorini shakllantirish bilan bir qatorda agrosanoat ishlab chiqarishini kompleks rivojlantirishgina mamlakat iqtisodiyotining agrar sektorini barqarorlashtirish imkonini beradi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy mexanizmida tashqi va ichki iqtisodiy quyi tizimlarni ajratib ko'rsatish lozim.

Tashqi iqtisodiy muhit davlat tuzilmalari va qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtasida shakllanib, narx siyosati, soliq tizimi, moliya-kredit mexanizmi va sug'urta tizimi orqali butun agrar sektor faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki iqtisodiy muhit esa korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, biznesni rejalashtirish, ijara munosabatlari va iqtisodiy hisob-kitoblarni qamrab oladi. Shu bois iqtisodiy mexanizmni tartibga solish jarayonini tashqi va ichki muhit nuqtayi nazaridan kompleks ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi


“Ushbu mexanizmning to'liq va samarali ishlashi barcha tarkibiy bo'linmalar hamda bo'g'inlarning tashkiliy yo'nalishini va ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlashi lozim. Natijada qishloq xo'jaligi korxonalarining resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi hamda ulardan foydalanish samaradorligi oshadi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va o'zlashtirish imkoniyati kengayadi. Bu esa, o'z navbatida,



qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini takomillashtirish va uning umumiy samaradorligini oshirishga olib keladi. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmi shakllantirish agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning strategik maqsadlari hamda davlat tomonidan tartibga solish elementlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Resurslardan oqilona foydalanish, maksimal daromad olish va yuqori raqobatbardoshlikka erishish faqatgina korxonalarning innovatsion va investitsiyaviy rivojlanishi sharoitida mumkin" [5].

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi kompleksi faoliyatidan muayyan shartlar (cheklovlar yoki rag'batlantirish mexanizmlari) asosida maksimal foyda olish tanlangan mezon sifatida qaraladi bo'lib, uning asosi sifatida o'simlikchilikda 80 million tonnadan ortiq don yetishtirish hajmini ta'minlash belgilangan [6]. Mazkur masalani o'rganish natijasida qishloq xo'jaligi korxonalarining rentabelligini prognozlash jarayoniga to'rtta asosiy guruhga birlashtirilishi mumkin bo'lgan omillar majmuasi ta'sir ko'rsatishi haqidagi xulosaga kelindi (3-rasm).



3-rasm. Qishloq xo'jaligi korxonalari rentabelligini bashorat qilish omillari tizimi

Ushbu vazifalarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida, V. M. Kalinchik ta'kidlaganidek, kelgusida mahalliy qishloq xo'jaligi sanoatini rivojlantirishning bir nechta stsenariylarini ko'rib chiqish zarur. Ushbu stsenariylarning asosi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining raqobatbardosh darajasiga erishish hamda bozor talabi bilan ishlab chiqarish hajmlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini prognozlash natijalariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Biroq, mazkur omillar tizimining kompleks va o'zaro uyg'un ta'siri qishloq xo'jaligi korxonalarining rentabellik darajasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyati samaradorligini ta'minlashda iqtisodiy mexanizmning hal qiluvchi o'rni mavjudligi asoslab berildi;
- mazkur mexanizm orqali resurslardan maqsadli va samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda bozor kon'yunkturasiga moslashuvchanlikni ta'minlash imkoniyati yaratilishi aniqlandi. Shu bilan birga, qishloq hududlarida qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar belgilandi;
- qishloq xo'jaligida integratsiya va kooperatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish zarurligi qayd etildi. Ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish zanjirlarini uyg'unlashtirish, bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda savdo mexanizmlarini takomillashtirish dehqon xo'jaliklarining barqaror daromad olishini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Kaletnik G., Honcharuk I., Yemchik T., & Okhota Yu. (2020). The world experience in the regulation of the land circulation. *European Journal of Sustainable Development*, 9(2), 557-568. <https://doi.org/10.14207/ejsd.2020.v9n2p557>
3. Malik M.I., & Shpikulyak O.G. (2019). Institutional analysis of entrepreneurship development in the agrarian sector of the economy: Methodological aspect. *Ekonomika APK*, 6, 73-82. <https://doi.org/10.32317/2221-1055.201906073>
4. Smith, A. (2018). The wealth of nations: An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations (O. Vasiliev, M. Mezhevikin, & A. Malevsky, Trans.). Nash Format. (Original work published 1776)
5. Rezaei-Moghaddam K., & Izadi H. (2019). Entrepreneurship in small agricultural quick-impact enterprises in Iran: Development of an index, effective factors and obstacles. *Journal of Global Entrepreneurship Research*, 9, Article 17. <https://doi.org/10.1186/s40497-018-0133-3>
6. Khakimov P., Aliev J., Thomas T.S., Ilyasov J., & Dunston S. (2020). Climate change effects on agriculture and food security in Tajikistan. *Silk Road: A Journal of Eurasian Development*, 2(1), 89-112. <https://doi.org/10.16997/srjed.33>
7. Kongagulov A., & Mistriukova I. (2025). Digital eco-transformation: Regulating sustainable agricultural practices in Kyrgyzstan. *E3S Web of Conferences*, 03023.
8. Kalinchyk V.M. (2010). Forecasting the sustainable development of the Ukrainian agro-industrial complex. In Collection of scientific works of the National Scientific Center "Institute of Agriculture of the National Academy of Agrarian Sciences" (Issue 3, pp. 164-174).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>